



XORIJIY TILNI O'RGANISHDAGI ENG DOLZARB MUAMMOLAR

Sattorova Sevinch Sanjar qizi

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti

Ingliz filologiya va tarjimashunoslik fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish ingliz tili yo'nalishi

1-bosqich 2509-guruh talabasi

Email: sattorovasevinch@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitish va o'rganish jarayonida duch kelinayotgan eng dolzarb muammolar umumiy tahlil qilinadi. Jumladan, an'anaviy o'qitish metodikasining zamonaviy talablarga mos kelmasligi texnologik imkoniyatlardan ongli foydalanmaslik va lingvistik muhitning yetishmasligi kabi muammolar tahlil markaziga olingan. Shuningdek, ushbu masalalarni bartaraf etish bo'yicha innovatsion metodik tavsiyalar va xalqaro tajribaga asoslangan samarali yechimlar taklif etiladi. Maqolada keltirilgan yechimlar til o'rganuvchilar uchun muhim lingvistik yechimlarni tahlil ostiga olgan.

Kalit so'zlar: Chet tili, o'quvchilar, grammatika, dars jarayoni, auditoriya, so'zlashuv.

Kirish.

Hozirgi kunda prezidentimiz tashabbuslari bilan yoshlarning xorijiy tillarni bilish darajasini oshirish maqsadida ko'plab tashabbus va islohotlar olib borilmoqda va ayni damda katta e'tibor chet tillarni o'rganishga qaratilgani ham bejiz emas. Ma'lumki, boshqa tillar qatorida ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab ham kun sayin ortib bormoqda. Bu dunyoda qayerga bormaylik ingliz tili allaqachon barcha uchun ommaviy tilga aylanib ulgurganligi shubhasiz. Ingliz tili jamiyatda odamlar uchun katta rol o'ynaydi. Ushbu til o'z ona tilisi bo'lmagan odamlar uchun o'rganish jarayonida qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Jamiyatda insonlari o'z o'rnini topishlari uchun ingliz tilini o'rganishlari, tushunishlari va ravon gapira olishlari kerak. Turli tillarda gaplashadigan boshqa mintaqalarga mansub odamlar bilan muloqot qilish va fikr almashish jarayonida ingliz tili muloqot qilishning umumiy tili sifatida qo'llanila oladi. Biroq ingliz tili grammatikasi murakkab va qiyin va shu bilan birga o'zbek tili grammatikasi bilan farq qiluvchi strukturaga egaligi tufayli o'rganish jarayonida ko'plab muammolarni yuzaga keltirib



chiqarmoqda. O'quvchilar grammatikani, ayniqsa, so'zlashuv jarayonida qiyin deb topishlari mumkin va bu oqibatda noto'g'ri xabar yetkazilishiga olib keladi. Ingliz tili grammatika qoidalari aniq emas va juda ko'p istisnolarga ega. Natijada, ularni yodlash qiyin va qo'llash yanada qiyinroq. Tilini o'rganishda quyidagi muammolarga duch kelinadi.

Asosiy qism

Ingliz tilini o'rganishda quyidagi muammolarga duch kelinadi:

Misol tariqasida murakkab grammatikani oladigan bo'lsak, talabalar uchun ingliz tili grammatikasini o'rganish juda qiyin. Ingliz tilida so'zlashda talabalar asosan grammatik xatolarga yo'l qo'yishadi. Odatda, o'quvchilar ingliz tilida so'zlashda zamon, nisbat, so'z boyligida xatolarga yo'l qo'yadilar. Gap tuzish jarayonida ko'pincha til o'rganuvchilar zamonni farqlashda qiynalishadi va noto'g'ri ishlatadilar, ya'ni ba'zan ular o'tgan zamonda gapirmoqchi bo'lishsa, o'tgan zamon o'rniga hozirgi zamonda gapirishadi. Muammo ular o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlarni qanday ishlatishni osongina farqlay olmasligidadir. Qolaversa, auditoriyada ona tilidan ortiqcha foydalanish ham yangi tilni o'rganishga tosiq bo'ladi. O'rganuvchilar undan foydalanishga majbur bo'lganlaridagina boshqa tilni yaxshi o'rganadilar. O'qituvchi talabalar o'rganilayotgan tilda muloqot qilishlarini talab qilishi kerak. Ana shu holatdagina til o'rganishda o'sish, talaffuzda ravonlik kabi yutuqlarga erishish darajasi oshadi. Dars jarayonida qat'iyat bilan talab qilinsa va cheklovlar yo'lga qo'yilsagina chet tilini o'zlashtirish muvaffaqiyatli amalga oshadi.[1]

Bundan tashqari, xorijiy tilni o'rganishda so'zlarning yangi va murakkabligi sababli o'quvchilar qiyinchiliklarga yuz tutishi mumkin. Hozirgi kungacha Internet brauzerlar uchun bepul o'zbekcha imlo tekshiruvchi ilova ishlab chiqilmagan. Shuning uchun O'zbekcha Vikipediyadagi maqolalar imlosini tekshirish mushkul. Ammo ayrim yechimlar mavjud:

Muayyan so'zlar imlosini son-sanoqsiz bosma va onlayn lug'atlarda, jumladan, [Vikilug'atda](#) tekshirish mumkin. [O'zbekcha Vikilug'atga](#) [O'zbek tilining izohli lug'atida](#) berilgan 80 000 dan oshiq so'z kiritilgan. U yerda nafaqat o'zbekcha so'zlar izohini, balki orfografiyasini tekshirish mumkin. Masalan, „hato“ so'zini izlab ko'rsangiz, natija chiqmaydi, ammo [„xato“](#) deb yozsangiz, natija chiqadi.

Bunda bizga imlo dasturlari yordamga keladi. Matn.uz saytida o'zbek tilidagi matnni bepul tekshirish mumkin. Dastur xato so'zlarning to'g'ri variantlarini taklif qiladi. Savodxon.uz pullik dasturi ayni damda o'zbek tilidagi eng mukammal imlo dasturidir. Yurida-ORFO dasturi ham mavjud, ammo u pullik va faqat [Microsoft Word](#) uchun mo'ljallangan.[2]

Qolaversa, talabalarning jamoat joylarida ingliz tilida gaplasha



olmasligining sabablaridan biri ham ishonchsizlikdir. Ular odamlar oldida ingliz tilida gapirisha olishmaydi. Bu, odatda, o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarni jamoat joylarida ingliz tilida gapirishga yetarlicha rag'batlantirmasliklari bilan bog'liq. Odatda, o'qituvchilar ularni sinfda yoki odamlar oldida ingliz tilida gapirishga undashmaydi. Ular ingliz tilini o'rganishadi, lekin so'zlashishni yetarlicha o'rganishmaydi. Bu asosan talabalar sinfda yoki odamlar oldida duch keladigan muammolardan biridir. O'ziga bo'lgan ishonch ingliz tilida gapirishda juda muhim rol o'ynaydi, agar talabalar o'zlariga ishonmasa, ingliz tilida erkin gapira olishmaydi. O'qituvchilar ularni o'zlariga ishonishga va jamoat oldida ingliz tilida gapirishga ishonch hosil qilishga undashlari kerak. Agar o'quvchilar nutqda xato qilishdan tashvishlansa, o'qituvchilar ularga hech kim mukammal tug'ilmasligini, har kim o'z xatolaridan saboq olishini o'rgatishi kerak. O'quvchilar noto'g'ri gapirsalar ham, gapirishda davom etishlari kerak. Chunki ular xatolaridan saboq olishadi va xatolarini qayta-qayta gapirishda tuzatadilar. Shuning uchun ingliz tilida gapirishda o'ziga ishonch juda muhimdir.[3] Bilamizki, til o'rganish jarayonida notanish bo'lgan so'zlarning tarjimasini lug'atlardan qidiramiz va gap tuzishda turli xil tarjimon botlarga va ilovalarga murojaat qilinadi. Ammo bu har doim ham kutganimizdek natija beravermaydi. Misol qilib aytadigan bo'lsak, idiomatik ifodalarni yoki frazalarni tarjima qilish jarayonida tarjima muammolari paydo bo'lishi mumkin. Idiomalarni tarjima qilish qiyin, chunki idiomani so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi. Tarjimon butun ma'noni tarjima qilishdan oldin tushunishi kerak. Ba'zi idiomalar tarjima qilingani kabi ma'noga ega emas bo'lishi mumkin yoki ularni hamma gapda, nutqda ham ishlatib bo'lmazligi mumkin. Hattoki, o'sha tilning "native speaker" lari ham bu muammoga duch keladilar. Shunday ekan, boshqa muammolar singari idioma va frazalarning noto'g'ri tarjimasini so'zlashuv sifatiga putur yetkazishi mumkin. Bitta yoki bir nechta a'lochi o'quvchining doimiy ustunlik qilishi. Ba'zan boshqalarga nisbatan bilimliror bo'lgan o'quvchilarga darsda yaxshi baholar, ma'lum darajada ko'proq rag'batlantirishlar berilsa ham, ularga o'zlashtirayotgan yoki darsga to'liq qatnashmayotgan o'quvchilarni butunlay unutib qo'yimaslik kerak. Ularni boshqalarga nisbatan ko'proq ruhlantirib, darsda faol qatnashishlariga imkon yaratib berish kerak [4].

Shuningdek, yana talabalar yoki o'quvchilarda tashvish yuqori bo'lishi mumkin. Bu emotsional holat bo'lib, til o'rganish jarayonining uch bosqichida sodir bo'lishi mumkin va har bir bosqichda tashvish o'rganishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Dastlabki bosqichda o'quvchilar notanish til yoki tushunchalarni tushunishda qiynalayotgani uchun tashvishlanishadi. Keyingi bosqichda stress yangi so'zlarni eslab qolish va aniqlashga urinishdan kelib chiqadi.



Oxirgi bosqichida tashvish ilgari o'rganilgan tilni qayta tiklash va undan foydalanishga urinishdan kelib chiqadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, tashvish ma'lum tilni o'rganishga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri bo'lishi mumkin, shuning uchun pedagog va o'qituvchilar tomonidan bolaga to'g'ri yo'nalish va yechim taqdim etilishi zarur [5].

Yechim tariqasida shuni aytish mumkinki, juda ko'p tilchi olimlar fikricha, tilni so'zlashgichlar yordamida o'rganish alohida so'z va iboralarni, gap qurilishini yodda saqlab qolishga katta turtki beradi. Tilni birinchi shaxs tilidan aytiladigan tayyor jumlar orqali o'rganayotgan odam gaplarni shunchaki takrorlamaydi, o'zini ma'lum holat-vaziyatlarda his etadi. Masalan, do'konda savdo qilish uchun kerak bo'ladigan gap-iboralarni o'rganish asnosida kishi xuddi oldi-sotdi qilayotganday sezadi o'zini. Rossiyada ingliz tilini chuqurlashtirib o'rgatishga ixtisoslashgan maktabda tadqiqot o'tkazildi. O'quvchilar matnning birinchi shaxs tilidan aytiladigan qismini to'qson sakkiz foizga esda saqlab qoldi. Bu tilni so'zlashgichlar yordamida o'rganish katta samara berishini ko'rsatadi.

Qolaversa, mutaxassislar yangi so'zlarni o'zlashtirishning juda unumli usulini topdi. Kuniga 30 ta so'z yodlaysiz, ularning 5 tasi fe'l bo'lishi kerak. Har kuni lug'atdagi so'zlardan alifbo bo'yicha saralab olasiz. Masalan, bugun "A" harfidagi dastlabki o'ttizta so'z tanlansa, ertaga "B" harfidagi o'ttizta so'z tanlanadi. Alifbo bo'yicha to'liq aylanib chiqilgach, yana "A" harfining keyingi o'ttizta so'zi yodlanadi. Bu odat asta-sekin tizim bo'lib shakllanadi va yodlashingiz borgan sari osonlashadi. Ushbu usul foyda berishi uchun har kuni so'z yodlang, dam olish kuni umuman bo'lmasligi kerak![6]

Xorijiy tilni o'zlashtirishning odatiy yo'sini shunday: oldin gap-so'zlar va iboralar esda saqlab qolinadi, keyin grammatika o'rganiladi. Masalan, boshqa tilli tengdoshlari orasiga tushib qolgan bolalar chet tilini juda oson o'rganadi. Gaplarini grammatik jihatdan ham to'g'ri tuzadi. Chunki ular til o'rganish jarayonida hamisha vaziyatning ichida bo'ladi. Shu sabab ham tilni his qilishlari oson kechadi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, hozirgi yoshlarni har tomonlama yetuk, o'z sohasining

kuchli mutaxassisi qilib tarbiyalashda chet tilini bilish juda katta ahamiyatga ega bo'lib, bu borada maktablarda chet tilini o'qitishda bir qancha muammolar mavjuddir. Ushbu muammolarni bartaraf qilish maqsadida o'qituvchilar chet tilini o'qitishda yangicha o'qitish usullaridan foydalansalar maqsadga muvofiq bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar



- 1 <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/5141.htm>
- 2 <https://wikipedia.org/ideas/problems-learning-english>
- 3 <https://www.teach-this.com/ideas/problems-learning-english>
- 4 <https://www.teach-this.com/ideas/problems-learning-english>
- 5 <https://www.ziyouz.com/ideas/kutubxonasi>
- 6 <https://sinaps.uz/maqola/7894/?ysclid=mlw6pe4mwd808317950>